

Xujaniyozova Oygul RajabovnaUrganch davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrası,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**O'QUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA IJODIY MEHNAT
FAOLIYATIGA YO'NALTIRISH SAMARADORLIGI BO'YICHA TAJRIBA-SINOV
ISHLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus metodikaga asoslangan holda 2019/2020, 2020/2021, 2021/2022-yillarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari Sirdaryo, Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida o'tkazilganligi va maktablarning 7-9-sinflar o'quvchilari tajriba sinov ishlari jalb etilganligi hamda dastlabki tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishida o'quvchilarni kreativ yondashuv asosida ijodiy mehnatga yo'naltirish mazmunini takomillashtirilganligi bo'yicha olingan tashxis natijalari tajriba va nazorat guruhlarida bir xillikni tashkil etilganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Tajriba, sinov, amaliyot, o'quvchi, mehnat, faoliyat, ta'lim, samaradorlik, yaratuvchanlik, ijodiy.

Аннотация. В данной статье на основе специальной методики проведены экспериментальные испытания, проведенные в 2019/2020, 2020/2021, 2021/2022 годах в Сырдарьинской, Наманганской, Ташкентской и Хорезмской областях, среди учащихся 7-9 классов школ. принимали участие в экспериментальных испытаниях. Отмечено, что результаты диагностики по улучшению содержания направления студентов на творческую работу на основе творческого подхода в организации предварительной экспериментальной работы были одинаковыми в экспериментальной и контрольной группах.

Ключевые слова. Опыт, испытание, практика, ученик, труд, деятельность, образование, эффективность, творчество, творческий

Annotation. In this article, based on a special methodology, the experimental tests carried out in 2019/2020, 2020/2021, 2021/2022 were carried out in Syrdarya, Namangan, Tashkent and Khorezm regions, and students of the 7th-9th grades of schools were involved in the experimental tests. It was noted that the results of the diagnosis on the improvement of the content of directing students to creative work based on a creative approach in the organization of the preliminary experimental work were the same in the experimental and control groups.

Keywords. Experience, test, practice, student, labor, activity, education, efficiency, creativity, creative.

Tadqiqot metodikasiga asoslangan holda 2020/2021, 2021/2022 – o'quv yillarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari Sirdaryo, Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida o'tkazildi. Mazkur maktablarning 7-9-sinflar o'quvchilari tajriba sinov ishlariga jalb etildi. Dastlabki tajriba-sinov ishlarini tashkil etilishida o'quvchilarni kreativ yondashuv asosida ijodiy mehnatga yo'naltirish mazmunini takomillashtirilganligi bo'yicha olingan tashxis natijalari tajriba va nazorat guruhlarida bir xillikni tashkil etdi.

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi – ta'kidlovchi bosqichida, maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlarda 7–9-sinf "Texnologiya" fanida kreativ yondashuvlarini qo'llagan holda o'quvchilardan ijodiy mehnatga yo'naltirishda olingan so'rovnomalar, o'tkazilgan tadqiqotlar orqali shunday xulosaga kelindiki, 7–9-sinf o'quvchilarida ijodiy mehnatga yo'naltirishda elektron o'quv qo'llanmalardan zamonaviy innovatsion texnologiyalardan hamda kreativ yondashuvlardan ijodiy mehnatga yo'naltirishda keng foydalansa bo'ladi.

Tajriba maydonlarida sinov ishlariga jalb etilgan
respondent-o'quvchilar va o'qituvchilar

Viloyat va maktablar nomi	2020-2021 yillar		2021-2022 yillar		Jami	
Viloyat va maktablar nomi	2020-2021 yillar		2021-2022 yillar		Jami	
	O'quvchilar soni	O'qituvchilar soni	O'quvchilar soni	O'qituvchilar soni	O'quvchilar soni	O'qituvchilar soni
Sirdaryo viloyati maktablari	118	2	120	2	238	4
Namangan viloyati maktablari	127	2	111	2	238	4
Toshkent viloyati maktablari	120	2	124	2	244	4
Xorazm viloyati maktablari	115	2	125	2	240	4
Jami	480	8	480	8	960	16

Tadqiqot xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirilgan tajriba-sinov jarayonida kreativ yondashuvlar yordamida ijodiy mehnatga yo'naltirilganlikning samaradorligi o'rganildi.

Umumta'lim tizimidagi amaldagi tadqiqotimiz doirasida o'quvchilarni kreativ yondashuv asosida ijodiy mehnat faoliyatiga yo'naltirish mazmunini takomillashtirishning shakl va metodlari, ta'lim texnologiyasining samaradorligi tajriba-sinovdan o'tkazildi. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy tahlillardan kelib chiqqan holda asoslovchi tajriba jarayonidagi amaliy faoliyatni respondent-o'quvchilar e'tiboriga ular uchun mo'ljallangan anketa so'rovini havola etish bilan boshladik [1;56-57]. Respondent-o'quvchilar ikki variantda tayyorlangan anketa so'rovlariga javob qaytardilar. Anketa so'rovining biri – kreativ yondashuvlar mohiyatidan xabardorlik, nazariy bilimlarga egalik darajasini aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchi anketa so'rovi esa ijodiy mehnat mazmunini o'quvchilar fanlarni samarali o'zlashtirishda bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatlarini baholashga yordam beradi.

Respondent-o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan birinchi variant anketa so'rovi o'zida quyidagi savollarni aks ettirdi:

1. Shaxsan Siz umumta'lim maktabida "Texnologiya" fanini qay darajada o'rgangansiz?
2. Sizning nazaringizda, "Texnologiya" fani kreativ yondashuvlar asosida o'rgatilishi kerakmi?
3. Siz ta'lim olayotgan maktabda o'tiladigan "Texnologiya" fani maktab o'quv rejasiga kiritilishga qanday qaraysiz?
4. Texnologiyani o'rganishda ijodiy mehnatni shakllantirishda kreativ yondashuvlar kerak degan fikrga qo'shilasizmi?
5. Texnologiya fanini o'rganishda ijodiy faollikka egaman, deb hisoblaysizmi? Ijodiy mehnat faoliyatini kreativ yondashuvlar yordamida amalga tatbiq etish bo'yicha muayyan tajribaga egamisiz?

6. «Ijodiy mehnat» «Kreativ yondashuv» tushunchalarini sharhlay olasizmi?

Ayni o'rinda respondent-o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan birinchi variant anketa so'rovi yuzasidan ular tomonidan qaytarilgan javoblarni tahlil etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Quyida ana shu xususida to'xtalib o'tamiz.

Anketa so'rovining birinchi savoli yuzasidan javob qaytarar ekanlar, 315 nafar respondent-o'quvchilarning aksariyati umumiy o'rta ta'lim maktablarda "Texnologiya" fanini o'rganishganligini ta'kidlashadi. Ularning javoblari 3.1.2-jadvalda qayd etildi:

2-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	305	63,6	175	36,4
Nazorat n_2 - 480 nafar	315	65,7	165	34,3

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, respondent-o‘quvchilarning katta qismi 315 nafari (65,7 foiz) «texnologiya fanini o‘rganganman» degan javobni berishgan [2;100].

Ikkinchi savol yuzasidan respondent-o‘quvchilar o‘quv, shu jumladan, kreativ yondashuv, ijodiy mehnat tushunchalari borasida deyarli ma’lumotlarga ega, lekin mohiyatini to‘liq anglab yetmasligini ta’kidlab o‘tadilar. Respondent-o‘quvchilarning javoblari ko‘rsatkichlari 3-jadvalda aks etgan:

3-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	324	67,5%	156	32,5%
Nazorat n_2 - 480 nafar	285	59,4%	195	40,6%

Tajriba ishlarining keyingi bosqichlarida respondent-o‘quvchilar bilan tashkil etilgan suhbat jarayonida ularning muayyan qismi ijodiy mehnat tushunchasi mohiyati borasida ma’lum ma’lumotlarga ega ekanliklari, biroq uning mohiyatini to‘laqonli yoritib bera olmasliklari bois ijobiy javob qaytarmasliklariga urg‘u berib o‘tdilar.

Anketa so‘rovidan o‘rin olgan uchinchi savol bo‘yicha respondent-o‘quvchilarning javoblari ijobiy mazmun kasb etdi (4-jadval).

4-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	305	63,6	175	36,4
Nazorat n_2 - 480 nafar	213	45,4	262	54,6

Respondent-o‘quvchilarning to‘rtinchi savolga javoblarida «Texnologiyani o‘rganishda ijodiy mehnat shakllantirishda kreativ yondashuvlar kerak», [3;11]degan fikrning ommaviy ravishda ko‘zga tashlanishini e’tiborga olgan holda ularni ijobiy javoblar sifatida qabul qildik, bunday javoblar son ko‘rsatkichlarida quyidagicha ifodalanadi (5-jadval):

5-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	349	72,7	131	27,3
Nazorat n_2 - 480 nafar	204	42,4	276	57,6

Respondent-o‘quvchilar ijodiy mehnatning maqsadini ochib berishga harakat qilar ekanlar, “Texnologiya” fani bo‘yicha muayyan tajriba va bilimga egaliklarini namoyon etdilar. Beshinchi savol yuzasidan ularning javoblari quyidagicha bo‘ldi (6-jadval):

6-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	247	51,5	233	48,5
Nazorat n_2 - 480 nafar	214	44,6	266	55,4

«Texnologiyani o'rganishda ijodiy mehnat tushunchasiga egaman, deb hisoblaysizmi? Ijodiy mehnatni shakllantirishda kreativ yondashuvni amalga tatbiq etish bo'yicha muayyan tajribaga egamisiz?» degan savolga respondent-o'quvchilarning javoblari 7-jadvalda ifodalangan:

7-jadval

Guruhlar	Ijobiy javoblar soni		Salbiy javoblar soni	
	Nafar hisobida	Foiz hisobida	Nafar hisobida	Foiz hisobida
Tajriba n_1 – 480 nafar	318	66,3	162	33,7
Nazorat n_2 - 480 nafar	231	48,2	249	51,8

Oltinchi savol yuzasidan berilgan javoblardan anglanadiki, respondent-o'quvchilar ijodiy mehnatni kreativ yondashuv yordamida amalga tatbiq etishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar [4;11]. Ularning so'z yuritilayotgan masalada faollik ko'rsatishidan yiroq ekanliklarini aniqlashga urindik. Ma'lum bo'lishicha, respondent-o'quvchilar «kreativ yondashuv» «ijodiy mehnat» tushunchalarini sharhlash borasida muayyan tajribaga egalar.

Savolnomaning tarkibiy tuzilmasidan joy olgan birinchi savolga javob qaytarar ekanlar respondent-o'quvchilarning aksariyati "Texnologiya" darslarida ularning ehtiyoj va talablari ma'lum darajada qondirilayotganini ta'kidlab o'tganlar [5;231-232]. Bizga yaxshi ma'lumki, ta'limning samaradorligi uning ta'lim oluvchi o'quvchilarning ehtiyojlarini to'la qondira olishi bilan belgilanadi. Javoblar quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi (anketa so'rovida 960 nafar respondent-o'quvchilar ishtirok etdilar, tajriba hamda nazorat guruhlarining respondentlari tomonidan qaytarilgan javoblar o'zaro nisbat tarzida ifodalanadi, ya'ni, suratda tajriba, maxrajda esa nazorat guruhlarining respondentlariga tegishli javoblarning miqdor ko'rsatkichlari beriladi):

Umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fani o'quv mashg'ulotlarining tashkil etilishi ehtiyoj va talablarimni ma'lum darajada qondiradi: $\frac{265}{185}$ nafar;

"Texnologiya" fani darslarining tashkil etilishi ehtiyoj va talablarimni qondira olmaydi: $\frac{195}{190}$ nafar;

aniq javob qaytara olmayman: $\frac{12}{65}$ nafar.

Ikkinchi savolga javob qaytarish chog'ida respondent-o'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida ijodiy mehnatni shakllantirish an'anaviy shakl va usullarda olib borilishini ta'kidlab o'tganlar. Chunonchi:

ijodiy mehnat shakllantirish noan'anaviy mashg'ulotlar asosida kechadi: $\frac{285}{210}$ nafar;

«ijodiy mehnatni shakllantirish» an'anaviy mashg'ulotlar jarayonida kechadi: $\frac{150}{180}$ nafar;

aniq javob qaytara olmayman: $\frac{7}{60}$ nafar.

"Texnologiya" fani darslarida o'quvchilarning faolliklari o'qituvchilar tomonidan rag'batlantirilib borilishi yuzasidan fikr yuritilar ekan, respondent-o'quvchilarning bu boradagi fikrlari bir-biriga ziddir, ya'ni:

"Texnologiya" fani darslarida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqilliklari rag'batlantirilib boriladi: $\frac{250}{200}$ nafar;

"Texnologiya" fani darslarida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqilliklari rag'batlantirilib borilmaydi: $\frac{150}{210}$ nafar;

aniq javob bera olmayman: $\frac{40}{30}$ nafar.

To'rtinchi savol yuzasidan respondent o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning asosiy qismi salbiy mazmun kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat "Texnologiya" fani o'qituvchilar ta'lim jarayonida ijodiy mehnatga oid bilimlarni 7-9-sinf o'quvchilariga yetarlicha batafsil yoritib berishmaydi. Javoblar ko'rsatkichi quyidagilardan iborat bo'ldi:

“Texnologiya” fani darslarida o‘qituvchilar yetakchi o‘rin tutadi: $\frac{165}{225}$ nafar;

Texnologiya fani darslarida o‘qituvchilar yetakchi o‘rin tutmaydi: $\frac{230}{180}$ nafar;

aniq javob bera olmayman: $\frac{45}{35}$ nafar.

«Shaxsan Siz kreativ yondashuv yordamida ijodiy mehnatni shakllantirishda yetarli darajada faollik ko‘rsatayapman, deb hisoblaysizmi?» degan savolga respondent-o‘quvchilarning javoblari quyidagicha bo‘ldi:

yeterli darajada faollik ko‘rsataman: $\frac{300}{210}$ nafar;

ma’lum darajada faollik ko‘rsataman: $\frac{120}{215}$ nafar;

mutlaqo faollik ko‘rsatmayman: $\frac{20}{15}$ nafar.

Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2021-2022 yillarda) umumta’lim maktablari o‘quvchilarning “Texnologiya” fanini kreativ yondashuv yordamida o‘rganishga oid nazariy hamda amaliy bilim va ko‘nikmalarining samardorligini oshirish darajalari aniqlandi, ya’ni quyidagi ishlar amalga oshirildi, shuningdek tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichda aniqlangan kamchiliklarga tuzatishlar kiritildi;

– o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslangan holda ilmiy-uslubiy xulosalar chiqarildi va rasmiylashtirildi hamda tadqiqot natijalarini ilmiy – uslubiy asoslashda tadqiqot natijalari ishning ilmiy farazi va maqsad vazifalari bilan nechog‘lik mushtarakligiga e’tibor berildi;

— tadqiqot davomida to‘plangan barcha ma’lumotlar matematik statistik metodlardan foydalangan holda baholanib, uning ishonchli ekanligi asoslandi va uslubiy ko‘rsatmalardan o‘quv jarayoniga joriy etishga oid tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba guruhlarida mashg‘ulotlar tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan yangi fan o‘qituvchisi texnologiya asosida, nazorat guruhlarida esa an’anaviy uslubda amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tavsiya etilayotgan texnologiya bo‘yicha tadqiqotchi va yuqorida bayon etilgan umumta’lim maktablarining tegishli “Texnologiya” fani mutaxassisleri ish olib bordilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников. Методика продуктивного обучения. Пособие для учителя. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – 320с.
2. Шарипов Ш.С. Педагогические условия формирования изобретательского творчества студентов. Автореферат дис...кан. пед. наук. – Ташкент, 2000. – 20 с.
3. Шарипов Ш.С. Педагогические условия формирования изобретательского творчества студентов. Автореферат дис...кан. пед. наук. – Ташкент, 2000. – 20 с.
4. Тушакова З.Р. Развитие умственных умений учащихся при обучении химии с использованием креативных карт. Автореферат дисс... кан. пед. наук. – Тобольск, 2015. – 22 с.
5. Морозов А. В. Формирование креативности преподавателя высшей школы в системе непрерывного образования. Дис. ... д-ра пед. наук. – М., 2004. – 445 с.